

Bunday tekis mexanizmlarning tuzilishi formulasini akademik P.L.Chebishev birinchi bo'lib 1869 yilda hosil qilgan. Chebeshev formulasini quyidagicha yozildi:

$$W = 3n - 2p_5 - p_4; \quad (3.1)$$

Bu erda: W-tekis mexanizmning qo'zg'aluvchanlik /erkinlik/ darajasi,  
n-mexanizm tarkibidagi qo'zg'aluvchi zvenolar soni,  
 $p_5$ - beshinchisi (5) sind kinematik juftlar soni,  
 $p_4$ - to'rtinchisi (4) sind kinematik juftlar soni.

Yuqoridagi P.L.Chebishev formulasini mexanizmlarning qo'zg'aluvchanlik darajasini aniqlovchi formula deb ham ataladi.

Chebishev formulasidan foydalananib, har qanday mexanik sistemaning mexanizm yoki mexanizm emaligini aniqlab olish mumkin.

Agar Chebishev formulasida hisoblangan sistemaning qo'zg'aluvchanlik darajasi nolga teng bo'lsa, bunday sistemaning bironta zvenoi ham harakat qila olmaydi, bu esa sistemaning ferma ekanligini biliradi. Agar sistemaning qo'zg'aluvchanlik darajasi 1 ga teng ( $W=1$ ) bo'lsa, bu sistema bitta etaklovchi zvenoga ega bo'lган mexanizm bo'ladi.

Agarda berilgan mexanik sistemaning qo'zg'aluvchanlik darajasi birdan yuqori bo'lsa, u holda bu sistema etaklovchi zvenoi bir nechta bo'lган mexanizm bo'ladi.

Mexanizm sxemasida zvenolarning tartibi arab raqamlari bilan (masalan 1,2, 3...) belgilanib, kinematik juftlar esa lotin harflari (masalan: A, B, C...) bilan ifodalanadi. (1.1-rasm). Beshinchisi sind kinematik juftlar quyidagicha ko'rsatiladi:

O'zaro nisbiy aylanma harakatda bo'lган kinematik juftlar (1.2a-rasm), o'zaro ilgarilanma harakatda bo'lган kinematik juftlar (3.2b,v-rasm).

Kinematik juftlarning bitta zvenoi qo'zg'almas bo'lsa, 1.3-rasmda ko'rsatilgandek tasvirlanadi. Ikki zvenoning o'zaro sharnirli bog'lanishi 3.4-rasmda ko'rsatilgan.

To'rtinchisi sind kinematik juftlari shartli sxematik tasvirga ega bo'lганligi tufayli ularning elementlari aslida qanday bo'lsa, shu holda tasvirlanadi (3.5-rasm).

Tekislikda harakat qiluvchi mexanizmlarning Assur-Artobolevskiy bo'yicha tasniflanishi (klassifikatsiyasi).


Tekislikda harakat qiluvchi mexanizmlarni Assur-Artobolevskiy bo'yicha tasniflash uchun quyidagi uch shart bajarilishi lozim:

1. Mexanizm tarkibi faqat beshinchisi sind kinematik juftlardan tuzilgan bo'lishi kerak. Agar, mexanizm sxemasida to'rtinchisi sind kinematik juftlari mavjud bo'lsa, ularni bitta zveno va ikkita beshinchisi sind kinematik juftlari orqali almashtirish lozim bo'ladi (3.6-rasm).


2. Mexanizmdagi etaklovchi zvenolarning soni uning qo'zg'aluvchanlik (erkinlik) darajasiga teng bo'lishi kerak.

3. Mexanizmning etaklovchi zvenoi qo'zg'almas zveno bilan beshinchisi /5/ sind kinematik juft hosil qilishi kerak. Mexanizmlar tuzilishining asosiy printcipini A.V.Assur birinchi marotaba ishlab chiqdi va quyidagicha ta'rifladi:


Har qanday mexanizm – etaklovchi zveno (yoki etaklovchi zvenolar bilan) qo'zg'almas zvenoga qo'zg'aluvchanlik darajasi nolga teng bo'lgan kinematik zanjirlarni /Assur turkumlarini/ ketma-ket qo'sha borish bilan hosil qilinadi.




3.1-rasm




3.2 -rasm



3.3 –rasm



3.4 –rasm



3.5 -rasm

Demak, qo'zg'aluvchanlik darajasi nolga teng bo'lgan kinematik zanjirlarning (Assur turkumlarining) matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$W_{assur} = 3n - 2p_5 = 0;$$

Bundan:

$$P_5 = \frac{3}{2}n;$$

Bu formulaga binoan: turkumlardagi zvenolar juft sonlardan, ya'ni 2,4,6,8...lardan, beshinchi sinf kinematik juftlar soni esa, mos ravishda toq sonlardan, 3,5,7,9....lardan iborat bo'ladi.

Zvenolar soni ikkita ( $n=2$ ) bo'lgan, beshinchi kinematik juftlar soni esa uchta ( $P_5=3$ ) bo'lgan turkumga ikkinchi tartibli-ikkinchi sinf Assur turkumi deyiladi (1.7-rasm).

Turkumlarda ichki (B) va tashqi (A,C) kinematik juftlar (ularning soni turkumning tartibini bilidiradi) orqali turkum ma'lum harakatda bo'lgan sistemaga (etaklovchi va qo'zg'almas zvenolarga) ulansa, ichki kinematik juft "V" orqali esa uning zvenolari o'zaro bog'langan bo'ladi. Tarkibida nechta aylanma juft mavjudligi va bu juftlar qay tarzda ilgarilanma harakat qiluvchi juftlar bilan almashganiga qarab ikkinchi sinf Assur turkumi besh xil turga bo'linadi (1.8-rasm).

Zvenolarning soni ( $n=4$ ) to'rtga teng bo'lganda, beshinchi sinf kinematik juftlar soni ( $p_5=6$ ) oltiga teng bo'ladi. U holda mexanizmlarning etaklovchi qismi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- a) Ikkita ikkinchi sinf (2-3 va 4-5 zvenolardan 3.9a-rasm).
- b) Bitta uchinchi sinf turkumdan (3.9b-rasm).

c) Bitta to'rtinchi sinf turkumdan (3.9v-rasm).


Ikkinci sinfdan yuqori sinfga taaluqli bo'lgan turkumning sinfi asosiy konturdag'i ichki kinematik juftlarning soni bilan aniqlanadi, masalan: 1.9b-rasmda E,C va D kinematik juftlarda, 3.9v-rasmda esa B,C,D va G lardir.

Mexanizmlarning etaklanuvchi qismi tarkibida to'rtadan ko'p zveno bo'lsa, u holda sxema ikkinchi, uchinchi hamda to'rtinchi sinf turkumlar yig'indisidan tarkib topgan kinematik zanjirdan iborat bo'lishi mumkin.


Assur-Artobolevskiy bo'yicha mexanizmning sinfini aniqlash uchun avvalo mexanizm tarkibidan ikkinchi tartibli Assur turkumini ajratib olish kerak (agar bu mumkin bo'lmasa, kattaroq sinfga taaluqli bo'lgan turkum ajratiladi).

Mexanizm tarkibidagi turkum ajratib olingandan keyingi qolgan qismi ham mexanizm bo'lishi kerak. Shu tartibda ajratish to bitta etaklovchi va qo'zg'almas zveno qolguncha davom ettiriladi. Shu ajratilgan turkumlarning eng yuqori tartibi mexanizm turkumini bildiradi.


Mexanizmni Assur turkumlariga ajratilgandan so'ng uning tuzilish formularsi yoziladi.



3.6 –rasm



3.7 –rasm



3.8 -rasm

#### AMALIY QISM

Tekis mexanizmning strukturasini tekshirish uchun talabaga bitta model yoki jadvalda ko'rsatilgan kinematik sxemalaridan bittasi beriladi.

1. Model yoki mexanizm sxemasining tuzilishi bilan tanishilib, uning harakati o'rGANILADI.
2. Barcha zvenolar raqamlar bilan, kinematik juftlar lotin alifbosining bosh harfi bilan belgilanib, mexanizmning yetakchi va yetaklovchi zvenolari hamda kinematik juftlar soni aniqlanadi.
3. Mexanizmning qo'zg'aluvchanlik darajasi P.L.Chebishev formulasi yordamida aniqlanadi.

**АДАБИЁТЛАР:**

1. Karimov R.I, Saliyev A. Amaliy mehanika. T.: Fan va texnologiya, 2005, 268 б.
2. Усмонхўжаев X.X. Машина ва механизмлар назарияси. Т.:Ўқитувчи, 1981, 520 б.
3. Фролов К.В ва бошқалар. Машина ва механизмлар назарияси. Т.: Ўқитувчи, 1990, 495 б.
4. Рустамхўжаев Г.П. Механизм ва машиналар назариясидан масала ҳамда мисоллар тўплами. Т.: Ўқитувчи, 1987, 248 б.
5. Каримов Р.И, Баратов Н.Б, Максудова Н.А. Амалий механика фанининг «Материаллар қаршилиги» бўлимидан ўқув қўлланма. Т.: ТошДТУ, 2005 й, 148 б.

Xatambekova Nozimaxon Lochinbek qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dutor chog'lu asbobini kelib chiqishi yasalishi va ishlatalishi haqida ma'lumotlar bor. Dutor cholg'u asbobini milliy musiqada tutgan o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa, tor, dutor, alt, musiqa asboblari, yakka zarb. Dutor (forscha: ) — O'rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobidir. Nomi fors tilidan „ikki tor“ (< ӢӢ du — „ikki“, ӢӢ tār — „tor“) deb tarjima qilinadi, biroq Hirot dutori o'n tor'tta torli bo'ladi. Dutor XV asr atroflarida paydo bo'lgan deya tahminlar mavjud. Yasalishi Dutor tut, o'rik, yong'oq yog'ochlaridan yasaladi. Dutorning qorni o'nga yaqin yupqa taxtakachni egib, bir-biriga yopishtirilib yasaladi. Buning ustidan qopqoq yopiladi va tayyor bo'lgan qorin dastaga ulanadi. Torgir yoki tor ilgak dutorning ikki simini ko'tarib turadi. Dutorning dastasi ingichka uzun bo'ladi. Boshqa torli asboblarda odatda metal pardalar bo'lsa, dutorda dastasiga o'rالgan 15 ga yaqin ipak parda bo'ladi. Zamonaviy dutorlarning pardalari ba'zan yog'och yoki suyakdan yasaladi. Dutor dastasi suyak, sadaf bilan bezaladi. Dutor torlari avvaliga ichakdan, keyin ipakdan tayyorlanar edi. Zamonaviy dutor torlari neylondan qilinadi. Registri Dutorda bir yarim oktava atrofidagi diatonik-xromatik gamma bor. Chalish uslablari. Dutorni turli zarb bilan chalish mumkin. Yakka zarb, qo'sh zarb, piripirak, rez kabi zarblar bilan chalinadi.

O'zbek xalq ijodida. Dutor uchun xalq orasida maxsus kuylar yaratilgan. Bular safiga „To'rg'ay“, „Farg'onacha“, „Tanova“, „Munojot“, „Rohat“, „Jigarpora“, „Dilxiroj“, „Chertmak“, „Shafoat“, „Suvora“, „Qo'shtor“ kuylarini kiritish mumkin.

O'zMEdan. Dutor (fors— ikki tor) — 1) torli chertma milliy musiqa cholg'usi. O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek Dutori muloyim, nafis va shi-rali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan aj-ralib turadi. U asosan tut, o'rik yog'ochlaridan yasaladi. Cholg'uning kosaxonasi (rezonatori) 8—12 ta yupqa, bir-biriga yonmayon yopishtirilgan taxtacha (qovurg'a)dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo'g'iz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 13—17 ta parda bog'lanadi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o'yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplaridan eshiladi. Ular Tanavor sozi (kvarta), Munojot sozi (kvinta), Qo'shtor sozi (unison)ga sozlanadi. Uyg'urlarda Dutorning kattaroq shaklda, Turkmanistonda fakat o'yma (qazma) turi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda kosaxonasi qovurg'alik Dutorlar bilan birga hajmi kichik, o'yma xillari ham uchraydi. Dutorlar yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sozi bo'lib, sozandan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorlarda yakka zarb, qo'shzarb, bilak zarb, bidratma, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. Dutorlar haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniy „Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari“ nomli risolasi

(16-bobi)da uchratamiz. 16—17-asrlarda „Dutoriy“ ta xallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Hozirda milliy Dutor ijrochiligining o‘ziga xos uslublari 4 ta asosiy (Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm) maktablari orqali namoyon bo‘ladi. 20-asrda Andijon maktabi namoyandalaridan Dorip dutorchи, M. Najmiddinov, O. Rustamov, K. Jabborov, Farg‘onada Qo‘zixon Madrahimov ijrosida „Nolish“, „Cho‘pon“, „Andijon Kurdi“, „Andijon Sayqali“, „Tuya bo‘zloq“, „Qo‘shtor“; Toshkent maktabi yirik vakillaridan Solixon Hoji, A. Vahobov, F. Sodiqov, M. Yunusov, T. Alimatov, 3. Obidov, S. Yo‘ldoshevlar talqinida „Sharob 1, 2“, „Shafoat 1, 2, 3“, Toshkent Sayqali“, „Toshkent Kurdi“, „Rajabiy 1, 2“, „Kurash“, „Dutor Bayoti“, „Dutor Navosi“; Samarqand maktabi ustozlaridan Hoji Abdulaziz, Qori Siroj Yusupovlar ijrosida „Guluzorim“, „Bebokcha“, „Bozurgoniy“, „Gullar vodiysi“; Xorazm maktabi vakillaridan N. Boltayev, Yu. Jabborovlar ijrosida „Koradali“, „Aliqambar“, „Saqili Navo“ singari mumtoz kuylarda o‘z ifodasini topgan. 1970- yillardan yakka D.da Shashmaqom cholg‘u va ashula yo‘llari ham ijro etila boshlandi. O‘zbek bastakorlaridan N. Hasanov „Gilos“, F. Sodiqov „Dutorim“, S. Yo‘ldoshev „Dil kuylasin“, 3. Obidov „Tog‘ go‘zali“, O. Qosimov „Yangra sozim“ kabi asarlarni Dutor uchun yaratganlar; 2) dutor-alt — an‘anaviy Dutorni 1930- yillarda qayta ishlash natijasida paydo bo‘lgan turi. Torlari kapron (yoki boshqa polimer iplari)dan ishlanadi. Dastasiga xromatik tartibda joylashgan yog‘och yoki suyak pardalari yelimlab yopishtiriladi. Repertuaridan asosan o‘zbek kompo-zitorlari tomonidan qayta ishlangan (garmonizatsiyalashgan) xalq kuylari, fortepiano jo‘rligida ijro etilayotgan asarlar o‘rin olgan. Mazkur Dutor asosida (O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga moslab) turli hajmdagi Dutor xillari (D.— bas, D.— kontrabas) ishlandi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Adabiyotlar: Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 1993. 30-bet
- 2 . Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog'chasida musiqaviy o'yinlar va bayram ertaliklari. T.: O‘qituvchi. 1993. 29-bet
3. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'llim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006. 63-bet
- 4 <https://fayllar.org/>
- 5.<https://uz.wikipedia.org/>
- 6.<https://goaravetisyan.ru/>